

ENERGETIK XAVFSIZLIK MOHIYATI HAMDA UNI TA'MINLASHNING AHAMIYATI

Rayimov Shohruh

*Toshkent davlat yuridik universiteti
magistratura bosqichi Atrof-muhit huquqi va
barqaror rivojlanish yo'nalishi talabasi
raimovshakhrux@gmail.com*


Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda energetik xavfsizlik tushunchasi, mohiyati, energetik xavfsizlikka tahdidlar va energiyadan oqilona foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi energetika tizimidagi muammo va yechimlar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Energetik xavfsizlik tushunchasi, investitsiya jalb qilish, energiyadan oqilona foydalanish, xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilinishi, tahdidlar, davlat xususiy sherikchilik, energiya tejamkorligi.

Milliy, shu jumladan, iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri energetik xavfsizlikdir. Energetik xavfsizlik butun jahon, jamiyat, mamlakat va fuqarolarning hamda ular iqtisodiyotining ichki va tashqi tahdid omillari ta'sirida iqtisodiy jihatdan olishi mumkin bo'lgan miqdor va ma'lum sifat darajasidagi yoqilg'i-energetik resurslarining kamyob bo'lib, yetishmay qolishidan himoyalangan holatidir

Energetik xavfsizlik, shuningdek, energetik resurslar va energiya ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishi, ular bilan mamlakatni o'zini-o'zi ta'minlashga qodirligi hamda energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilish samaradorligini ifodalaydi (1-chizma).

1-chizma



Bugungi kunda O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasida energetik xavfsizlikka tahdidlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat :

- yoqilg'i energetika kompleksi tarmoqlarida asosiy asbob-uskunalar eskirishining yuqori darajadaliqi;
- iqtisodiyotni energo tejamkorlik rivojlanish yo'liga o'tkazilmaganligi;

- energetika tarmoqlarida investitsiya yetishmasligi va ulardan foydalanish samaradorligining pastligi;
- qiluvchilarning xarid qobiliyatining pastligi;
- energiya va energiya resurslari iste'moli uchun haq to'lamalik holatlarining keng miqyosda ekanligi;
- Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida energiya tashuvchi resurs egalari bilan ulardan energiya ishlab chiqaruvchi hamda iste'molchi mamlakatlar o'rtasida o'zaro mustahkam manfaatli kelishuvning yo'qligi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan tub o'zgarishlar amalga oshirilyapti. Respublikaning turli hududlarida erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar, klasterlar tashkil etilyapti. "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Xavfsiz shahar" kabi strategik dasturlar asosida shaharu qishloqlarda ulkan bunyodkorliklar qilinmoqdaki, ularning qiyofasi mutlaqo yangilanmoqda. Shunga yarasha turizm ham taraqqiy topmoqda. O'z navbatida, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasiga har qachongidan ham ko'ra ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida kuzatilayotgan bu kabi shiddatli rivojlanish sur'atlari, eng avvalo, elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojning ham o'sishiga olib kelmoqda.

Masalan, 2000 yilda bir nafar maishiy foydalanuvchi bir oyda 114 kVt/soat elektr energiyasi ishlatgan bo'lsa, 2018 yilga kelib bu ko'rsatkich 57 foiz ko'payib, 200 kVt/soatga yetdi. Ayni chog'da joriy yilda respublika bo'yicha elektr energiyasidan umumfoydalanishda aholi ulushi 26,5 foizga yetdi. Vaholonki, 1990 yilda bu miqdor 13,9 foiz edi. Boz ustiga, 2020 yilga kelib mamlakatimizda elektr energiyasiga bo'lgan talab 2018 yilga qaraganda 1,7 foiz, jumladan, aholi ehtiyoji 1,5 barobar o'sdi.

Mavzuga raqamlar va faktlar, og'riqli manzaralar orqali chuqurroq kirib boramiz. Respublikamizdagi elektr energiyasining 90 foizi issiqlik elektrostansiyalarida ishlab chiqariladi. Biroq amaldagi TESlarning asosiy qismi, ya'ni 84 foizi bundan 50 yil oldin foydalanishga topshirilgan. Almisoqdan qolgan bunday qurilmalar, tabiiyki, zamon talablariga mutlaqo javob bermaydi. Boisi ularning nihoyatda eskirib ketgani elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini kamaytirib yuborib, taqchillikni keltirib chiqarmoqda, qolaversa, foydalanilayotgan yoqilg'ining katta miqdorda sarflanishiga sabab bo'lmoqda. Oqibatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi tannarxi ham oshib ketayapti. Bulardan oddiy iste'molchining deyarli xabari yo'q. Ular uchun uyda chiroq yonib turishi muhim, u qanday yaratilayotgani, nima hisobiga yetkazib berilayotgani esa ko'pchilikni qiziqitirmaydi ham. Lekin soliq to'lovchi yuqoridagi va quyidagi ma'lumotlarni o'qib, o'zi uchun oqilona xulosa chiqarib olsa, foydadan xoli bo'lmaydi.

Hozirgi kunda yurtimizda energiya tizimlari elektr tarmoqlari uzunligi 254,8 ming kilometrغا teng. Shundan 218,4 ming kilometri 0,4-10 kV.li kuchlanishga ega past voltli taqsimlash tarmoqlaridir. Ulardan 62,4 foizining ishlatilish muddati 30 yildan oshib ketgan. Taqsimlash tarmoqlarining juda eskirib ketgani esa elektr energiyasining sezilarli darajada yo'qotilishiga olib kelmoqda. Ya'ni ayni paytda issiqlik elektrostansiyalaridan elektr energiyasi tarmoqlariga chiqarilayotgan umumiy elektr quvvatining 20 foizi yo'qotilayapti.

Ishlab chiqarilayotgan yorug'lik va issiqlik manbaining beshdan bir qismi havoga uchib ketmoqda, uvol bo'layapti .

Aynan mana shunday kamchiliklarni bartaraf etish, nuqsonlarni yo'qotish va isrofga yo'l qo'ymaslik uchun nima qilish kerak? Birinchi navbatda, iste'molchilarning elektr ta'minoti ishonchliligi va sifatini ta'minlab qo'yish darkor. Albatta, bunda kelajakda elektr quvvatiga bo'lgan talabning oshib borishi ham inobatga olinish shart. Buning uchun quyidagi rejalar amalga oshirilishi lozim.

- issiqlik elektr stansiyalari energiya qurilmalarini modernizatsiya qilish (40 foiz), elektr energiyasini yetkazib berish va taqsimlashga mo'ljallangan elekt tizimlari (57 foiz), transformator punktlari (52 foiz) va nimstansiyalar (21 foiz)ni yangilash;

- yangi generator quvvatlarini ishga tushirish (bu elektr energiyasi ishlab chiqarishni 20-40 foiz oshiradi);

- amaldagi energiya qurilmalarini ishga layoqatli holatda saqlab turish uchun vaqti-vaqti bilan rejali ta'mirlash...

Yana bir hal etilishi suv va havodek zarur masala. Elektr energiyasi ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarning asosiy qismini energetika resurslari (tabiiy gaz, yonishdan hosil bo'lgan mazut, ko'mir) qiymati tashkil etmoqda. Mazkur ko'rsatkich hozirda 43 foizga teng va ularning narxi dunyo bozorida qimmatlashib borayotgani inobatga olinsa elektr energiyasi uchun amaldagi tariflarni saqlab qolish naqadar to'g'ri?! Chunki resurslar narxiga foydalanish xarajatlari va to'lovlar bo'yicha qarzdorliklarni qo'shib hisoblaganda, muammoning og'riqli manzarasi hosil bo'ladi. Bunday muammolar elektr ta'minoti ishonchliligi va sifatiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonning energetika sohasiga investorlarni jalb qilish potentsiali ham, bu sohaga xorijiy investorlar tomonidan bildirilayotgan qiziqish ham yuqori darajada.

Energetika vazirligining bu boradagi yakuniy rejasi – erkin bozorni yaratishdir. Bunda investorlarga hech qanday kafolatlar berilmaydi, faqatgina ularning xususiy mulk daxlsizligi ta'minlanadi. Ular mablag'larini xavf-xatarga qo'ygan holda, barcha risklarni inobatga olib O'zbekistonda stansiya quradi va mijozlarni jalb qilgan holda ishlab chiqargan elektr energiyasini yetkazib berishi mumkin bo'ladi.

Bozorni bir kunda yaratib bo'lmaydi, bu juda murakkab ish hisoblanadi, ammo amalga oshirish imkonsiz bo'lgan vazifa ham emas. Ko'plab mamlakatlar bu yo'lni bosib o'tgan, biz ularning tajribalarini o'rganishimiz lozim. Erkin bozor munosabatlarini joriy qilish uchun kamida 2-3 yil vaqt talab etiladi. Ungacha oldimizda ikkita yo'l bor: Birinchisi, tashqi qarz evaziga stansiyalar qurishda davom etish. Ikkinchisi esa davlat xususiy sherikchilik asosida loyihalarni amalga oshirish. Bunda energiyaga bo'lgan defitsit ortib ketmasligining oldini olishda juda ham muhim hisoblanadi.

Ammo davlat xususiy sherikchilikning ham o'ziga yarasha yaxshi va yomon tomonlari bor. Yaxshi tomoni – davlatning suveren qarzi oshib ketmaydi, salbiy tomoni esa bilvosita kafolatlar ostida pul jalb qilish miqdori o'sib borishi mumkin. Agar ahvol yomonlashib, Milliy elektr tarmoqlari investorlardan xarid qilayotgan elektr energiyasi uchun pul to'lay olmay qolsa, ushbu bilvosita qarzlarga bevosita qarzlarga aylanadi va ushbu mablag'larni to'lashi davlat zimmasiga tushadi.

Xulosa qilib aytganda, shuning uchun ham tezroq erkin bozor yaratishimiz lozim. Bugungi kunda elektr energiyasi aholiga subsidiyalangan narxlarda yetkazib beriladi. Elektr energiyasi tannarxi taxminan 500-600 so‘mni tashkil etadi. Xorijiy investorlar energetika tarmog‘imizga uzoq muddatga pul tikishga tayyor va ular talab qilayotgan daromad darajasi ham anchayin past. Bu bizning iqtisodiyotimiz o‘shishiga juda ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Energetika sohasi qanchalik raqobatbardosh bo‘lsa, bu boshqa tarmoqlardagi o‘shishga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. NORMATIV-HUQUQIY HUIJATLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi qonuni;
 2. O‘zbekiston Respublikasi “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni;
 3. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi.//Xalq so‘zi 2020-yil 23-sentabr.

II. MONOGRAFIYA, ILMIY MAQOLA, ILMIY TO‘PLAMLAR

1. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish: Qonunlar va normativ hujjatlar/ U.T.Ayubov, T.S.Tillaev. -T.: Adolat, 2002.-B.310.
2. Ayubov U.T. Lishenie ogranichenie i priostanovlenie prava prirodopolzovaniya.:Avtoref... kand. yurid. nauk/ U.T.Ayubov; Tashkentskogo gosudarstvennogo yuridicheskogo instituta-T.: 1999.
3. O.Narzullaev Energetika huquqi o‘quv qo‘llanma TDYu 2021-yil.
4. Avezova N.R., Matchanov N.A., Raximov E.Yu., Xakimov M.A., Dalmuradova N.N., Dexkonova M.X. Otsenka potentsiala solnechnoy energii Kashkadarinskoy oblasti// “Alternativnaya energetika i ekologiya», № 01 (394), 2022g., str. 36-52.